



**BUXORO
DAVLAT
1930 UNIVERSITETI**



O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag'ishlangan an'anaviy respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTE: MUAMMO VA YECHIM

	maqollarning semantik guruhleri	
Astanova G.A., Mirzoyeva Y.Y.	"Shimora"mi yoki "shumora"	106
Bafoyeva N.A.	Abdulla qodiriyning "o'tgan kunlar" romanida tarixiy antroponimlar	109
Bozorova G.Z.	Плеоназмнинг соҳаларда қўлланиш хусусиятлари	115
Fattoyeva R.B.	Bobur she'riyatida yorning qomati bilan bog'liq o'xshatishlar	120
Jumayeva M.E.	Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya tadqiqi	123
Jo'rayeva L.J.	Badiiy nutq – tilning obrazli ifodasi sifatida	129
Raxmonova F.	Badiiy asarlarda dialektik birliklarning qo'llanilishi ("shum bola" qissasi misolida)	133
Toirova G.I., Jumaeva D.B.	Antroponimik- murojaat birliklarining vazifalari	137
Toirova G.I., Quziyeva T.F.	O'zbek va ingliz tillarida qisqartma so'zlarning ifodalanishi	141
Umarova D.F.	Сельское хозяйство на английском и узбекском некоторые фразеологические союзы	147
Uchqunova A.S.	Buxoro shaharidagi kasb-kor bilan bog'liq godonimlar	154
Xamdamova G.X.	Somatizmning madaniyat va tildagi o'imi	158
Yusupova D.Y.	H. Xudoyberdiyeva she'rlarida so'z zimmasiga yuklangan ma'no	163
Yo'ldosheva N.Q.	Mehnat konseptini ifodalovchi leksemalar tahlili	167
O'rinova M.O.	O'zbek xalq maqollarida arxaizmlar	172
	3-sho'ba. O'zbek lug'atchiligi muammolari	
Nazarova D.G'.	Мақтаб она тили таълими ва ўқув лугатчилиги муаммолари	175
Xayrullayeva M.O.	Buxoro viloyat vobkent tuman mikrotoponimiyasining mavzu guruhleri tasnifi	182
G'aybullayeva N.I.	Тиббиёт лексикографияси ва унинг тили хусусида	187

Toshkent: Fan, 1993.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA LINGVOKULTUROLOGIYA TADQIQI

Jumayeva Marjona Erkinovna,
BuxDUo'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon tilshunosligida lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan. Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari, rivojlanish tarixi hamda amaliy ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Fanga oid muammolar va masalalar tadqiqotlar asosida yoritib berilgan.

123

O'ZBEK TILI VA UNING TA'LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

Kalit so'zlar: *lingvokulturema, lingvoepistema, anomaliya, metafora, ziddiyat, modellar, konsept*

XX asrning 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik to'qnashuvida yangi fan sohasi – lingvokulturologiya shakllandi. Olimlar fanning ildizlarini, dastlabki tadqiqotchini V.fon Gumbold [12] nomi bilan bog'lashadi. Rus olimlari V.Babayeva [4], V.Maslova [20], ingliz olimi L.E. Vilms [28], N.F.Alefirenko [1, 2, 3]larning ishlarida til madaniyat fenomeni asosida tadqiq qilingan. Qayd etilgan ishlarda lingvokulturologiyaning tadqiqot usullari, shakllanish bosqichlari, madaniyatning inson tafakkuri bilan munosabati, konsept tushunchasi, uning tushuncha bilan farqli va o'xshash jihatlari yoritilgan. Rus olimi V.Maslova lingvokulturologiyaning shakllanishini 3 bosqichga bo'lib o'rganadi [20]. Tadqiqotda fanga oid

XX asrning 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik to'qnashuvida yangi fan sohasi – lingvokulturologiya shakllandi. Olimlar fanning ildizlarini, dastlabki tadqiqotchini V.fon Gumbold [12] nomi bilan bog'lashadi. Rus olimlari V.Babayeva [4], V.Maslova [20], ingliz olimi L.E. Vilms [28], N.F.Alefirenko [1, 2, 3]larning ishlarida til madaniyat fenomeni asosida tadqiq qilingan. Qayd etilgan ishlarda lingvokulturologiyaning tadqiqot usullari, shakllanish bosqichlari, madaniyatning inson tafakkuri bilan munosabati, konsept tushunchasi, uning tushuncha bilan farqli va o'xshash jihatlari yoritilgan. Rus olimi V.Maslova lingvokulturologiyaning shakllanishini 3 bosqichga bo'lib o'rganadi [20]. Tadqiqotda fanga oid ko'pgina masalalar: til, madaniyat, inson va millat o'rtasidagi bog'liqliklar haqidagi fikrlar keltirilgan. Olima antroposentrik paradigmada obyekt sifatida inson va uning qarashlari birlamchi mavqeda ekanligini uqtirib o'tadi, Boduen de Kutene [9], T.Kun [17], V. fon Gumbold[12] kabi olimlarning tilda millat ruhi yashashi hamda u inson tafakkuri va madaniyati bilan butun ekanligi haqidagi qarashlarini iqtibos sifatida keltirib o'tadi. Tadqiqotda lingvokulturologiyaning fanlar tizimidagi o'ri, lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari, metodika va usullari, rus frazeologiyasida frazeologiya, metafora, ramz hamda streotiplar haqida bayon qilingan [17]. V.N. Teliya esa lingvokulturologiyaning sotsiolingvistika va etnolingvistika bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, bu sohani etnolingvistikaning bir qismi deya qayd etadi [25]. Madaniyatning o'rnatilishi majburiy emas, balki tilda azaldan shakllangan xalq mental xususiyatlarining in'ikosi ekanligini ta'kidlaydi. Lingvokulturologiya sohasi til va madaniyatning darajasini sintez qiluvchi murakkab bir birlik bo'lib, tilning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Til va madaniyatning mushtaraklashuvida antroposentrik tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lishi ta'kidlaydi [26].

Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya faniga oid sermahsul harakatlar XX asrning oxiriga kelib Moskvada shakllangan to'rtta lingvokulturologiya maktabi vakillari tomonidan amalga oshirilgan

til va madaniyatni o'rganishda tilshunoslikning mexanizmlarini izlash, til va madaniyatning umumiy gumanistik asosga ega ekanligini ibotlash haqidagi qarashlar mavjud [7].

V.A.Fedosovning "Lingvokulturologiya va uni o'rganish" nomli tadqiqotida mazkur yo'nalish bo'yicha bir qancha tamoyillar ishlab chiqilgan. Muallif lingvokulturologiyani tadqiq etishni tildan madaniyatga yoki madaniyatdan tilga konsepsiyasi asosida olib boradi. Muallif tildan madaniyatga qarab yondashilsa – ilmiy lingvokulturologiya, aksi bo'lsa, o'quv lingvokulturologiyasi shakllanishini aytib o'tadi. Har ikkala yo'l ham tilshunoslikda tadqiq etilayotganligi, lingvokulturologiyani madaniyatdan tilga qarab borish maqbulroq ekanligini ta'kidlaydi. Tildan madaniyatga qarab borilganda madaniyat elementlari yaxshi anglashilmay qolishi, uni lug'atga qamrab olish mushkul ekanligi aytib o'tadi. Mazkur sohada madaniyatshunoslik tilshunoslikdan oldinda turishi maqsadga muvofiq ekanligi uqtiradi. Ilmiy lingvokulturologiya umumiy lisoniy bilimlar bilan emas, balki ma'lum bir madaniyat elementlari, lingvokulturemalar qamrab olingan lugat bilan ishlay olishini ta'kidlaydi [10]. Xrolenka tomonidan *madaniyat* so'zining ma'nolari va uning 9 ta belgisi sanab o'tilgan, mentallitet termini va uning tilda aks etish omillari tahlilga torilgan [30]. N.A.Bagdasarovning tadqiqotida rus va ingliz tilida mavjud inson his-tuyg'ularini ifodalovchi birliklar tahlilga tortilib, tadqiqot davomida nafaqat lingvokulturologiya, balki fanning boshqa tarmoqlariga doir fikr-mulohazalar ham bayon etiladi. Fanning shakllanishida boshqa fanlarning va sohalarining o'zaro ta'siri va aloqasi haqida to'xtalib o'tiladi [5, 182]. L.E.Vilms rus va ingliz tillarida ifodalanuvchi "muhabbat" konseptining lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etgan. Dissertatsiya 3 bobdan iborat bo'lib, olim dastlabki bobda "muhabbat" terminining lingvistik aspektida o'rganilishi masalasiga diqqatini qaratadi. Inson yashar ekan, bu konseptning mavjudligi va barhayotligi haqida fikr bildiradi. Keyingi boblarda rus va ingliz tillarida "muhabbat" terminining qanday semalarda reallashuvi, uning ta'lim, san'at, ilmiy jarayonlardagi ahamiyati, xalq maqollarida va etnolingvistikada mavjudligi haqida ma'lumot beradi.[28]. E.V. Babayevaning tadqiqotida "shaxsiy mulkka munosabat"

“tabiat” konseptidagi tadqiqi oʻrganilgan. Metaforaning bir qancha turlari yuqoridagi konseptlar asosida tahlil qilingan [16].

Bicher Omerning “Rus xalq maqollarida zoomorfik tasvirlarning lingvokulturologik hamda leksikografik tadqiqi” nomli nomzodlik tadqiqotida frazeologik birliklar, hikmatli soʻzlar, ularda obraz yaratish yoʻllari va vositalari, zoomorfik tasvirlarning oʻmi va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Rus madaniyati hamda mintallitetida “zoologik kod” darajalari haqida maʼlumotlar berilgan [8].

Jahon tilshunosligida lingvokulturologiyaning nazariy asoslari, turli tillar doirasidagi tadqiqi mufassal oʻrganilgan. Xususan, rus tilshunosligida konsept tushunchasiga makrokonsept nuqtayi nazaridan yondashilgan. Ot zoonimining semantik va uslubiy jihatlarini [27], rus hamda fransuz tillarida ot tasviri [11], slavyan marosim va folklorida quyoning ramziy belgisi [13], lugʻatlarda zoonimlarning ramziy maʼnolari [14], moʻgʻul va arab adabiy manbalarida tuya obrazi [15, 109] kabi zoomorfik tasvirlar konsept nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan. Oʻzbek tilshunosligida esa ayrim zoonim komponentli birliklarning antroposentrik tadqiqi anchagina sust. Xususan, oʻzbek xalq paremlarida hayvon nomlari alohida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilmagan. Holbuki, paremlarda hayvon nomlari bilan bogʻliq metoforizatsiya asosiy oʻrinni egallaydi. Oʻzbek tilshunosligida bu boradagi muommolar oʻz tadqiqotchisini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alefirenko N.F. Linguocultural nature of mentality // Язык. Словесность. Культура. 1/2010. -224.
2. Alefirenko N.F. The cognitive base of lingvosemantics. Praesens Verlag, Wien (Austria). 2005. – P. 395.
3. Alefirenko, N.F. The synergetics of lingvoculturology as a methodical problem. Bratislava.2005. – P. 310.
4. Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков) Волгоград, Ленинна,1997.-1256.
5. Багдасарова Н.А. Соотношение вербализованных эмоций в русском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. –М.:Теория языка, 2004.– 182 с.